

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI

TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri,

*dotsent **Lobar Mardonova,***

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

*1-kurs talabasi **Sevinch Abirova***

Annotatsiya: XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlar eng avvalo millat yoshlarini tarbiyalash va yangicha ko‘rinishdagi ta‘lim tizimidan foydalanishni maqsad qilgan. Turkiston jadidlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz turli adabiyotlarda ularga zamonasining muhitiga qarab o‘z ta‘rifini berishgan.

Kalit so‘zlar: Jadidlikning poydevori, jadid maktablari, ma‘naviy-g‘oyaviy mafkuraviy, tafakkur

Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo‘yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta‘siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gaspiralinig “Tarjimon” gazetasi (1883) va u asos solgan “usuli jadid” (ikkinchi nomi “usuli savtiya”) maktabi (1884) muhim rol o‘ynadi. Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy “Shul zamonda (1894-1904 yillar) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. G‘azit o‘qig‘uvchilarni mullalar “jadidchi” nom bilan atar edi” [3:61], degan fikrni keltiradi.

Jadidlikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarining tashkil qilinishi edi. Hamonki, maqsad jamiyatni yangilash ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Buning uchun esa zamon talabiga mos yoshlarni tarbiyalash masalasi jadid allomalarining oldiga qo‘yilgan bosh masala bo‘ldi. 1900-1925 yillar “jadidchilik” tushunchasining paydo bo‘lishi o‘z davrining eng peshqadam, tashabbuslar davridir [3:10].

O‘zbek falsafasining ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida “XIX asrning so‘nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy shakllanishining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Turkistonda o‘sha paytda turli ma‘naviy-g‘oyaviy va mafkuraviy oqimlar – qadimchilar, jadidchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo‘lgan tafakkurning turli shakllari hamda ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo‘nalishga ega bo‘lgan “Chig‘atoy gurungi” kabi ancha yetuk yig‘inlar, ular ilgari surgan ma‘rifiy ta‘limotlar, nazariyalar mavjud edi” [1: 155]. Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati, balki boshqa harakatlar ham shakllangan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlar eng avvalo millat yoshlarini tarbiyalash va yangicha ko‘rinishdagi ta’lim tizimidan foydalanishni maqsad qilgan. Dastlab xususiy jadid maktablarini ochib yoshlarga ta’lim bera boshlagan bo‘lsa, keyinchalik jadid maktablari shakllanishi keng quloq yozib bordi. Mintaqaning turli hududlarida o‘ziga xos tarzda bunday maktablar ochila boshladi. Shu o‘rinda jadid maktablarining faoliyati haqida bo‘lgan quyidagi fikrga e’tibor bersak, “Biz turkistonliklar ham 15 yil bo‘ladirki, bu dunyoda o‘zgalardek taraqqiy va toliq etmak orzusi bilan yangi maktablar ocha boshladik. Yolg‘iz erkak bolalarimizni tarbiya etarg‘a kirishdik, ammo qizlarimizning tarbiyasiga hozirgacha hech bir ahamiyat bermadik” [7:4]. 1910 yili bu “usuli jadid”, ya’ni jadid maktablari yopildi. Ammo bu maktablarning yopilishi jadidlik harakatini susaytirilmadi, aksincha yanada rivojlanishi uchun xizmat qildi. Bundan “ko‘rinib turibdiki, jadidlik keng ijtimoiy masalalar va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surish maqsadida shakllangan ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish bo‘lgan” [8:20]. Ammo jadidlik ta’limotiga munosabat faqatgina mustaqillik yillarida o‘z mavqeini tiklab bordi.

Turkiston jadidlarning tarixiga nazar tashlar ekanmiz turli adabiyotlarda ularga zamonasining muhitiga qarab o‘z ta’rifini berishgan. Masalan, jadidlarning faoliyati haqida Fayzulla Xo‘jayev birinchilardan bo‘lib harakatni ikki yo‘nalishda bo‘lganini ko‘rsatib bergan: “Shunday qilib, sentabr revolyutsiyasi boshlanguncha Oktabr va uning oqibatlarini tufayli vujudga kelgan jadidlar tashkilotlarining tabaqalanishi uzil-kesil rasmiylashdi, bu harakat bir-biridan butunlay boshqa bo‘lgan ikki qismga bo‘lindi: Uning birinchi qismi Buxoro Kommunistik partiyasiga kirib, o‘z taqdirini Oktabr revolyutsiyasi va jahon kommunistik harakatining taqdiri bilan, jahon sotsial revolyutsiyasi uchun kurash bilan qo‘shdi va birlashtirdi. Jadidlarning Oktabrgacha bo‘lgan qismi esa fevralgachagi pozitsiyalarda qolib o‘zining millatchilik ideologiyasini tark etmadi” [9:190].

Turkistonda o‘z faoliyatini olib borgan jadidlar hududiy qatlamiga ko‘ra ham farqlangan. Masalan, Turkiston jadidlari, Buxoro jadidlari va Xiva jadidlariga ajratib tahlil qilsak, bularning asosiy maqsadlari ozodlik pozitsiyasiga yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, ichki tuzilishida ayrim farqlarni ham ko‘rish mumkin. “Turkiston jadidlari ham Buxoro jadidlari singari tabaqalanish yo‘lidan bordi. Turkiston jadidlarning katta qismi revolyutsiyani tushunmadi va uning ilgarigi milliy burjua ideologiyasida qolaverdi” [8:192]. Bundan ko‘rinib turibdiki, jadidlarning faoliyati revolyutsiyadan oldingi va revolyutsiyadan keyingi bosqichlarga ajralgan. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi milliy harakatlar, Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar, Toshkentdagi ziyolilarning faoliyatlaridagi o‘zaro birlik va o‘ziga xoslik holatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Samarqandda vujudga kelgan ma’rifatparvarlik harakati ijtimoiy rivojlanishi natijasida jadidlikning siyosiy bosqichiga ko‘tarildi. O‘z davrining ko‘zga ko‘ringan ijtimoiy-

siyosiy oqimi sifatida jadidlik milliy o‘z-o‘zini anglashning o‘rishiga va milliy-ozodlik mafkurasining shakllanishi va taraqqiyotiga juda katta xizmat qildi [10:4].

Fikrimizning xulosasida Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo‘lgan barcha sohalarda innovatsion g‘oyalarni joriy qilish edi. Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini o‘zgartirishni, ularning ma’naviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash g‘oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan maqsadni ilgari surdi. Bu harakatni biz jadidlarning Chor Rossiyasining tajovuziga qarshi qaratilgan kurashida ko‘rishimiz mumkin. Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi. Bu g‘oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003.
2. Tulak. XX asr o‘zbek adabiyoti. –Andijon, 1993.
3. Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002.
4. Sh.G‘affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta’lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 200.
5. Tog‘aev. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o‘rganish.// “Xalq ta’limi”, 1993, 1-son.
6. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –T., 2006.
7. O‘zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbat materiallari. 1998 yil 9 oktabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdulkarimovna. (2023). Ta’lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 154–162.
9. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, 57(1), 132–138.
10. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
11. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 168–170.
12. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE‘RIYATI VA TILI HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, 57(1), 143–146.

- 13.Sahkiba Saidmuradova, & To‘lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE’RIYATI POETIKASI. PEDAGOGS, 57(1), 147–152.
- 14.Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(1), 63–75.
- 15.Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(4), 34–37.
- 16.Qurbonova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA OROPOV SHE’RIYATIDA O‘XSHATISHLAR. PEDAGOGS, 57(1), 158–160.
- 17.Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA O‘XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O‘RNI. PEDAGOGS, 57(1), 161–167.
- 18.Nodira Hamidova. (2024). G‘AFUR G‘ULOM HIKOYALARIDA SO‘Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. PEDAGOGS, 57(1), 139–142.